https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Umarova Xilolaxon Ilxom qizi
Farg`ona davlat universiteti
Tayanch doktaranti
+998911265955
hilolaxonu@gmail.com

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA OKKAZIONAL MORFOLOGIK DERIVATSIYA VA UNING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek she’riyatida okkazional morfologik derivatsiya hodisasi tahlil qilinadi. Tadqiqot Faxriyor, Usmon Azim va Guljamol Asqarova kabi zamonaviy shoirlarning ayrim she’rlari asosida olib boriladi. Avval morfologik derivatsiyaning nazariy asoslari, so‘ng okkazional birliklarning struktur-semantik xususiyatlari va ularning poetik nutqdagi pragmatik-funksional vazifalari yoritiladi. Tahlilda suffiksal (-lan-, -li) hamda onomastik asosli derivatsiya modellari alohida ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, okkazional yasalmalar tilning normativ yasash modellaridan chetga chiqsa-da, aynan shu “normadan tashqari”lik ularning badiiy-estetik qiymatini belgilaydi va shoirning individual uslubini shakllantiruvchi yetakchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: morfologik derivatsiya, okkazional birlik, suffiksatsiya, prefiksatsiya, poetik nutq, o‘zbek she’riyati.

ОККАЗИОНАЛЬНАЯ МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ДЕРИВАЦИЯ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ И ЕЁ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье анализируется явление окказиональной морфологической деривации в узбекской поэзии. Исследование проводится на материале стихотворений современных поэтов, таких как Фахрияр, Усмон Азим и Гульджамол Аскарова. Сначала рассматриваются теоретические основы морфологической

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

деривации, затем освещаются структурно-семантические особенности окказиональных единиц и их прагматико-функциональная роль в поэтическом тексте. Особое внимание уделяется суффиксальным моделям (-lan-, -li), а также деривации на основе ономастических корней. Результаты показывают, что, несмотря на выход окказиональных образований за пределы нормативных моделей словообразования, именно эта «ненормативность» формирует их художественно-эстетическую ценность и выступает ведущим лингвопоэтическим средством, создающим индивидуальный авторский стиль.

Ключевые слова: морфологическая деривация, окказиональные единицы, суффиксация, поэтический текст, узбекская поэзия.

OCCASIONAL MORPHOLOGICAL DERIVATION IN CONTEMPORARY UZBEK POETRY AND ITS LINGUISTIC ANALYSIS

Annotation

The article examines the phenomenon of occasional (occasional) morphological derivation in Uzbek poetry. The study is based on selected poems by contemporary poets such as Faxriyor, Usmon Azim, and Guljamol Asqarova. The paper first outlines the theoretical foundations of morphological derivation, followed by an analysis of the structural and semantic features of occasional units and their pragmatic-functional roles in poetic discourse. Special attention is given to suffixal derivation models (-lan-, -li) as well as derivation based on onomastic roots. The findings demonstrate that although occasional formations deviate from normative word-formation patterns, this very deviation determines their artistic and aesthetic value and functions as a key linguopoetic device shaping the poet's individual style.

Keywords: morphological derivation, occasional units, suffixation, poetic discourse, Uzbek poetry.

Kirish

Morfologik derivatsiya til sistemasining eng muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, mavjud leksemalar asosida yangi so‘zlarni hosil qilish jarayonini ifodalaydi. Yangi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

yasalmalar til lug‘at tarkibining boyib borishi, sistemaning dinamik rivojlanishi va ijodiy imkoniyatlarini namoyon etadi [1]. Derivatsion jarayon natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar struktura va semantika jihatidan o‘z o‘zaklaridan farqlanib, tilning ichki potensialidan dalolat beradi.

So‘z yasash nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda (Booij, Dressler, Aronoff, Plag va boshqalar) derivatsiya konstruktiv tizim sifatida baholanib, unda shakl va mazmun o‘rtasidagi muvofiqlik alohida ta’kidlanadi [1; 2]. Okkazional birliklar masalasi esa, asosan, badiiy nutq va stilistika doirasida o‘rganilib, muallifning individual til yaratuvchanligi, poetik obraz va ekspressivlikni ta’minlovchi vosita sifatida talqin qilinadi [3; 4].

O‘zbek tilshunosligida okkazional yasalmalar, xususan, she’riy matn misolida Ochildiyeva, Qurbonova, Yo‘ldoshev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda okkazional birliklarning obrazlilik, emotsionallik va stilistik intensivlikni oshirishdagi roli ko‘rsatib o‘tiladi [3; 5]. XX–XXI asr o‘zbek she’riyatida Muhammad Yusuf, Guljamol Asqarova, Usmon Azim, Faxriyor kabi shoirlar tilning yasovchanlik imkoniyatlaridan faol foydalanib, nostandart affikslar va ijodiy derivatsiya modellarini poetik sistemaning ajralmas unsuri darajasiga ko‘targanigа guvoh bo`lamiz.

Mazkur maqolada o‘zbek she’riyatidagi okkazional morfologik derivatsiyalarni aniq misollar asosida tahlil qilish, ularning struktur-semantik xususiyatlarini yoritish va poetik kontekstdagi funksional vazifalarini ko‘rsatish maqsad qilib olinadi. Tadqiqot Faxriyor, Usmon Azim va Guljamol Asqarova she’rlari materiali asosida olib boriladi.

Morfologik derivatsiya til sistemasida yangi so‘zlar hosil qilishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. U, bir tomondan, struktur yondashuvda affikslar, ularning ketma-ketligi va grammatik ko‘rsatkichlar tizimini belgilasa, ikkinchi tomondan, semantik yondashuv doirasida yangi yasalmalar ma’no tizimini shakllantiradi [1]. Funksional yondashuv esa derivatsion birliklarning nutqdagi stilistik o‘rni va kommunikativ vazifasini o‘rganadi [2].

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

O‘zbek tilida affiksatsiya – xususan, suffiksatsiya eng mahsuldor jarayon bo‘lib, -chi, -lik, -dor kabi suffikslar orqali kasb, mavhumlik, egalik va boshqa semantik kategoriyalar ifodalanadi: do‘st – do‘stlik, ilm – ilmdor va hokazo. Bunda affikslar nafaqat yangi leksik birliklar hosil qiladi, balki so‘zning uslubiy qirralarini, nutqdagi funksional o‘rnini ham belgilaydi [5].

Okkazional so‘zlar umumtil me’yorida tayyor model sifatida mavjud bo‘lmagan, muallifning shaxsiy nutqiy ehtiyoji va badiiy niyati asosida yaratilgan yasama birliklar hisoblanadi [3]. Ular odatda uch holatda yuzaga keladi:

1. so‘z yasovchi affikslarning odatiy bo‘lmagan leksemalarga qo‘llanishi;
2. affikslarning semantik kengayishi yoki torayishi;
3. standart modelning ijodiy qayta qurilishi.

Badiiy nutqda okkazional birliklar obrazlilik, ekspressivlik va emotsionallikni kuchaytirib, muallifning estetik pozitsiyasini ifodalaydi, o‘quvchining tasavvuriga yangilik olib kiradi va matnning stilistik qiymatini oshiradi [3; 5]. Shu jihatdan okkazional morfologik derivatsiya tilning nafaqat lingvistik, balki lingvopoetik imkoniyatlarini ham ochib beradi.

Metodlar

Tadqiqotda deskriptiv-tahliliy metod – yasama birliklarning morfologik tuzilishi va lisoniy xususiyatlarini tavsiflash; komponent tahlil – derivatsion birliklarning ichki semantik bo‘linmalarini aniqlash; qiyosiy metod – turli shoirlar ijodidagi okkazional yasalmalar struktur va semantikasini solishtirish metodlaridan foydalanildi:

Ushbu metodlar uyg‘un qo‘llanishi okkazional derivatsiyaning formal-struktur jihatlarigina emas, balki ularning poetik matndagi pragmatik yukini ham ko‘rsatish imkonini berdi.

Natijalar

Faxriyor she’riyatida -lan- affiksi asosida hosil bo‘lgan bir qator fe’llar morfologik va semantik jihatdan normadan chetga chiqadi.

lekin tush bilmaski, hislanmaydi kul [9]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

“hislanmaydi” shakli his o‘zagiga -lan- affiksining qo‘llanishi bilan hosil bo‘lgan bo‘lib, normativ tilda uchramaydi. Uning tuzilishi: his (o‘zak) + lan (yasovchi) + ma (inkor) + ydi (zamon). Bu yerda -lan- odatdagi “holatga kirish” ma’nosini kuchaytirib, “hisga aylanmoq, his bo‘lolmaslik” semantik qatlamini yuzaga chiqaradi. Natijada his qilmaydi shakliga nisbatan semantik jihatdan zichroq va poetik jihatdan intensivroq birlik hosil bo‘ladi.

o‘tmishning ham donishmand kabi jussasi qoqlana boshlaydi [9]

qoqlana boshlaydi fe’li qoq o‘zagiga -la- va -n- affikslari qo‘shilishi, so‘ng boshlaydi yordamchi fe’li bilan birikishi natijasida yuzaga keladi: qoq + la + n + a + boshlaydi. Bu yerda “urilmoq” ma’nosidan “barqarorlikni yo‘qotmoq, qaltirash, yemirilish” ma’nosiga semantik kengayish ro‘y beradi.

kul ham xotiraday mutlaq bir qiymat o‘zgarmas, so‘zgarmas,
kulning sukutida xotira hayqirig‘i [9]

So‘zgarmas so`zida qo`llangan -gar morfemasi aslida kasb-kor, shug‘ullanish, bir ish bilan band bo‘lish ma’nolarini bildirishi kerak . bu o`rinda morfema o`zgarmas so`ziga hamohang ravishda yasalgan bo`lib, so‘zgarmas – “ so`zga usta emaslik, kamgaplik” mazmunini ifodalovchi poetik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Affiksning ana shunday semantik siljishi shoirning individual til yaratuvchanligini ko‘rsatib, poetik nutqning obrazlilik va ekspressivlik darajasini oshiradi.

Guljamol Asqarovaning “Umidlandim, ko‘p umidlandim”[10] misrasidagi umidlandim fe’li umid o‘zagiga -lan-, -di, -m affikslarining qo‘shilishi bilan hosil bo‘lib, umid + lan + di + m modelini tashkil etadi. Bu okkazional fe’l “umidga to‘ldim, umid holatiga kirdim” kabi ma’nolarni mujassamlashtiradi. Adabiy tilda mavjud umid qildim, umid bog‘ladim kabi birliklarga nisbatan umidlandim shakli subyektning ichki kechinmasini grammatik jihatdan zichroq ifodalaydi va lirikaning psixologik qatlamini jonlantiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Endi bizga ishq yo‘llari xatarlidir, Ma’yuslidir, og‘riqlidir, qadarlidir, Ibtidomiz intihodan xabarlidir, Quvonchi oz, g‘ami o‘lim qadarlidir. Umr – daryo, har mavji bir ajdarlidir. Najotsiz ishq dami odam yutarlidir. Ki, sevgining yo‘li mudom saharlidir. [11]

Usmon Azimning “Ishq yo‘llari xatarlidir” she’rida ma’yuslidir, qadarlidir, ajdarlidir, saharlidir, xabarlidir, yutarlidir kabi birliklar -li affiksining normadan tashqari qo‘llanishi asosida shakllangan. ma’yus, qadar, ajdar, sahar, xabar, yut- o‘zaklari adabiy tilda -li sifat yasovchi affiks uchun tayyor baza emas. Shu bois mazkur yasalmalar to‘liq okkazional derivatsiya namunalari sifatida baholanadi. Masalan, ajdarlidir – “ajdarga o‘xshash, dahshatli”, saharlidir – “sahar bilan tutash, sahar ruhiga to‘la”, yutarlidir – “odamni yutadigan, halok qiladigan darajada xavfli ishq” kabi ma’nolarni beradi. Bu shakllar denotativ ma’noni kengaytirish, intensivlikni oshirish va she’riy subyektning subyektiv kechinmalarini grammatik shaklga ko‘chirish vazifalarini bajaradi.

“qonning xotirasi o‘ngga toshadi, osmon ilohiylashar, tangrilanib boradi tog‘lar, ko‘karadi “turk” kalimasi va ko‘lga aylanib qolar dafaatan , salorlanar goho kalima, salor qizning ishvasida samarqandlanar”[9]

Faxriyor she’riyatida tangrilanib, salorlanar, samarqandlanar kabi birliklar onomastik (tangri, Salor, Samarqand) o‘zaklardan -lan- modeli asosida yasaladi. tangrilanib – tangri + lan + ib: “ilohiylashib borish, tangri tusiga kirish”;
salorlanar – Salor + lan + ar: “salor ruhiga kirish, salorga xoslashish”;
samarqandlanar – Samarqand + lan + ar: “Samarqand ruhi bilan to‘lish, tarixiy-madaniy makon bilan qorishish”. Bu birliklar milliy-tarixiy xotira, etnik identitet va makon timsollarini fe’llashgan shaklda ifodalaydi. Onomastik o‘zaklarning derivatsiyasi poetik nutqda semantik zichlikni oshiradi, intertekstual assotsiatsiyalar hosil qiladi va milliy ruhni kuchaytiradi.

Muhokama

O‘rganilgan material okkazional morfologik derivatsiyaning bir necha asosiy tendensiyalarini ko‘rsatadi. Birinchidan, -lan- modeli asosida ot va onomastik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

birliklarning fe'llashuvi (hislanmaydi, umidlandim, tangrilanib, salorlanar, samarqandlanar) tilning normativ yasash imkoniyatlaridan tashqariga chiqsa-da, semantik jihatdan asoslangan va poetik jihatdan funksional birliklar yaratadi. Bu model, ayniqsa, "holatga kirish, ruhga singish, timsolga aylanmoq" ma'nolarini ifodalashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, sifat yasovchi -li affiksining ma'yus, qadar, ajdar, sahar, xabar, yut- kabi o'zaklarga qo'llanishi derivatsion bazaning nostandartlashuviga olib keladi. Bu orqali shoir odatdagi sifat yasash qoliplarini buzadi, natijada semantik intensivlik, ekspressivlik va obrazlilik keskin oshadi. Mazkur birliklar orqali ishqning xavfli, og'riqli, o'limga teng kechinma sifatida tasvirlanishi grammatik shakl bilan bevosita bog'lanadi.Uchinchidan, onomastik o'zaklarga -lan- affiksining qo'shilishi (salorlanar, samarqandlanar) milliy-tarixiy va makon timsollarini dinamik fe'l shakliga ko'chirish imkonini beradi. Bu birliklar xotira, tarix, ota yurt, millat obrazlarini bir nuqtaga jamlovchi lingvopoetik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan okkazional yasalmalar tilning me'yoriy yasash modellariga tayansa-da, muallifning ijodiy yondashuvi tufayli standartdan sezilarli darajada farqlanadi. Natijada poetik matnning ekspressiv-estetik qiymati oshadi, shoirning individual uslubi esa morfologik darajada ko'rinish oladi [3; 5; 6].

Xulosa

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, morfologik derivatsiya o'zbek she'riyatida nafaqat lug'at boyligini to'ldiruvchi mexanizm, balki okkazional birliklar yaratish orqali poetik semantikani shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Faxriyor, Usmon Azim va Guljamol Asqarova she'rlari misolida:

– -lan- modeli asosida ot va onomastik birliklarning fe'llashuvi;

– -li affiksining normadan tashqari o'zaklarga qo'llanilishi.

natijasida yuqori ekspressivlikka ega okkazional yasalmalar hosil bo'layotgani kuzatildi. Bu birliklar matnda obrazlilikni kuchaytiradi, muallifning individual estetik pozitsiyasini grammatik darajada ifodalaydi va o'quvchining emotsional idrokiga faol ta'sir ko'rsatadi. Demak, okkazional morfologik derivatsiya o'zbek

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

she'riyatida tilning ijodiy imkoniyatlarini namoyon qiluvchi, milliy-badiiy tafakkurning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, kelgusida ham alohida korpuslar, kengroq material va statistik yondashuv asosida chuqur tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Booij G., The Grammar of Words: An Introduction to Linguistic Morphology. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2005.

2. Dressler, Wolfgang U. "Word-Formation in Natural Morphology." In: Pavol Štekauer, Rochelle Lieber (eds.). Handbook of Word-Formation. Dordrecht: Springer, 2005, pp. 267–284.

3.Aronoff, Mark. Word Formation in Generative Grammar. Cambridge, MA: MIT Press, 1976.

4. Plag, Ingo. Word-Formation in English. Cambridge Textbooks in Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

5. Qurbonova, M.A. o'zbek tilshunosligida okkazional birliklar tadqiqi.FarDU Ilmiy Xabarlari, 2022, № 4, 134–138-betlar.

6. Toshalieva, S. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi: Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent, 1998.

7. To'xtasinova, O.Y.; Akramova, Sh. Okkozional so'zlarning morfologik tasnifi.Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari, 2025-yil, 4-son, 2047–2051-betlar.

8. Sultonsaidova, Saodat; Sharipova, O'lmas. O'zbek tili stilistikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Yurist-media markazi" nashriyoti, 2009.

9. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/faxriyor-sherlar-2.html

10. https://tafakkur.net/umidlandim-kop-umidlandim/guljamol-asqarova.uz

11. https://tafakkur.net/endi-bizga-ishq-yollari-xatarlidir/usmon-azim.uz